

KASBIY QIZIQISH VA LAYOQATLARNI EKSPERIMENTAL O'RGANISH

Avezov Olmos Ravshanovich¹

instituti dotsenti

olmosavezov85@gmail.com

Shavkatova Shaxnoza Po'lot qizi²

Pedagogika fakulteti talabasi

shahnozashavkatova20@gmail.com

¹Buxoro davlat Pedagogika

²Buxoro davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7030972>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kasbiy qiziqish va layoqatlarni eksperimental o'rganish haqida ma'lumotlar keltirilgan. Qiziqish va layoqat tushunchalari va ularning shakllanishi haqida fikr yuritilgan. Kasb tanlashga oid ko'nikmalar keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: qiziqish, layoqat, kasb, hissiyot, iroda, tabiiy layoqat, ijtimoiy layoqat, stress, temperament, serotonin, dopamin, xarakter.

Kirish

Qiziqish va layoqatni eksperimental o'rganishdan oldin qiziqish va layoqat tushunchalariga ta'rif berib o'tmoqchiman. Qiziqish — shaxsning o'zi uchun qimmatli va yoqimli bo'lgan muayyan narsa va hodisaga munosabati. Bunda insonning o'ziga xos xususiyati bevosita mujassamlashadi. Qiziqish tufayli inson bilimlarni puxta, tez va oson o'zlashtiradi buning uchun hech qanday irodaviy zo'r berish talab etilmaydi. Qiziqqan sohasi yoki ilmi uchun inson hech qachon ortga qaytmaydi, charchamaydi.

Layoqat –Insonning tug'malik alomatlari bor individual sifatlardir. Layoqat va qobiliyat tushunchalari bir-birga juda o'xshash tushunchalar, hatto ayrim adabiyotlarda layoqat qobiliyatning o'zi deb ham ta'rif berilgan. Layoqatning ikki turi mavjud: Tabiiy layoqat hamda tug'ma layoqat. Tabiiy layoqat - odamdagi tug'ma xususiyatlardan oliy asab tizimi faoliyatining xususiyatlari, miya yarim sharlarining ishlashi, qo'l va oyoqlarning biologik va fiziologik sifatlari, ko'z quloq burun teri kabilarning xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ijtimoiy layoqat esa - bola tug'ilishi bilan uni o'rganan muxit muloqot uslublari so'zlashish madaniyati, qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zarur shart sharoitlardir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Kasb tanlashga keladigan bo'lsak, inson qiziqqan yoki yanayam sodda qilib aytadigan bo'lsam, o'zida unga nisbatan ijobiy hislarni his qiladigan sohaga mehr beradi. Ushbu kasb bilan mashg'ul bo'lganda o'zida yoqimli hislarni boshdan kechiradi, kayfiyati ko'tariladi, stressdan tezroq chiqib ketadi, serotonin, dopamin kabi garmonlar faolligi ortadi. Kasb tanlashda insonning temperamental xususiyatlari, xarakteri, irodasi va moyilligi aniqlanadi va yo'naltiriladi.

Kasb tanlashdagi moyilliklar:

- odamlar bilan ishlashga moyillik;
- texnologiya bilan ishlashga moyillik;
- an'anaviy belgilar bilan ishlashga moyillik;
- o'simliklar va hayvonlar bilan ishlashga moyillik;
- badiiy tasvirlar bilan ishlashga moyillik.

Quyidagilardan kelib chiqib inson o'zi uchun ma'lum bir yo'nalishni tanlab oladi. Moyillik qanday vujudga keladi degan savol vujudga kelishi mumkin. Moyillik yuqorida ta'riflagan tabiiy yoki ijtimoiy layoqat tufayli insonda mavjud bo'ladi. Hamma insonda layoqatlar mavjud. Ammo uni qanday rivojlantirishni bilmaymiz yoki shunday layoqat bizda borligini hattoki, bilmaymiz.

Atrofdagi dunyoga insoniy munosabatlarning taqdim etilgan turlariga muvofiq kasblar misollari:

Kasb turi	Kasb-hunarga misollar
Inson- tabiat(P)	Bog'bon, chorvachilik mutaxassisi, veterinar, chorvachi, geolog, agronom, biolog, o'rmonchi, asalarichi, tuproqshunos va boshqalar.
Odam- texnika(T)	Chilangar, tokar, radiotexnik, signalchi, tikuvchi, haydovchi, elektromontyor, muhandis, montajchi va boshqalar.
Odam - belgilar tizimi(3)	Chizmach, mashinist va kompyuter operatori, radio operatori, rejalashtiruvchi, iqtisodchi, korrektor, dasturchi, telegrafchi, terishchi va boshqalar.
Inson- badiiy tasvir(X)	Rassom, o'ymakor, me'mor, fotograf, aktyor, tosh maydalagich, rassom, musiqachi, modeler, shisha puflovchi va boshqalar.
Erkak- erkak(H)	Sotuvchi, o'qituvchi, o'qituvchi bolalar bog'chasi, enaga, maktab, texnikum, universitet o'qituvchisi; shifokor; hamshira, ofitsiant, administrator va boshqalar.

Natijalar tahlili: O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida shu aniq bo'lganki, insonda qiziqishlar juda ko'p. Ayrim hollarda biz tanlov qilishda o'ylanib qolamiz. Negaki, bizda variantlar juda ko'p bo'ladi. Bunday vaziyatda qanday yo'l tutish lozim. Avvalo, qiziqishlarimizga asoslangan holda egallamoqchi bo'lgan kasblarimizning ro'yxatini tuzamizda, birin ketinlik bilan bitta-bittadan ro'yxatdan bir donadan kasblarni o'chirib chiqamiz. O'zingizga savol bering "quyidagilar orasidan bittasidan voz kechishim kerak bo'lganda qay biridan voz kechardim?". Ushbu holat ro'yxatimizda bir dona siz eng qiziqqan, hech qachon voz kecholmaydiga, u bilan mashg'ul bo'lganingizda rohatlanadigan va albatta o'zingizni shu kasbda ko'ra oladigani qolguncha davom ettiring. Bu usul judayam samarali va foydali usul hisoblanadi.

Xulosa: Xulosa qilib shuni ayta olamanki, oldimizda turgan yo'llar judayam ko'p, Ayrim paytda nafaqat o'zimiz balki, ota-onalarimiz xohishlari ham bizni o'ylantirib qoladi. Bunday vaziyatda siz o'zingiz udallay olishingizga ko'zingiz yetadigan, shu kasbda o'zingizni ko'ra oladigan birini tanlashingiz lozim. Bunda yuqoridagi bilimlardan foydalanishingiz samaralidir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova "Psixologiya-fanlarini-oqitish-metodikasi" uslubiy qo'llanma
2. Z.Nishonova "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi"
3. R.Dushanov, Y.Farfiyev "Kasbiy psixologiya"
4. X.Ibragimov, Sh.Abdullayeva "Pedagogika nazariyasi" 2008
5. F.Xaydarov, N.Xalilova "Umumiy psixologiya" darslik
6. P.Ivanov, M.Zufarova "Umumiy psixologiya" darslik
7. <http://www.psychologytoday.com>
8. <http://www.kobo.com>
9. <http://www.britannica.com>
10. [.http://www.medicalnewstoday](http://www.medicalnewstoday)